

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XUSHMUOMALALIK TUSHUNCHASI VA STRATEGIYALARI

**Normamatova Fotimajon Mansurbek qizi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

E-mail: normamatovafatima22gmail.com

**Annotatsiya.** Xushmuomalalik nafaqat odob-axloq tushunchasi, balki tilshunoslikning murakkab lingvistik va madaniy hodisalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada xushmuomalik tushunchasi va uni shakllantirish vositalari o'zbek va ingliz tillarida tahlil qilinadi va taqqoslanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, xushmuomalalik tushunchasi universal, ya'ni deyarli barcha millatga mansub bo'lsa-da, ularning ifodalanishi va og'zaki shakllantirilishi har bir millatning til va madaniyatiga xosdir. Maqolada xushmuomalalik strategiyalari, ularning kommunikativ vazifalari, lingvistik ifodalanish shakllari qiyosiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** xushmuomalalik tushunchasi, xushmuomalalik strategiyalari, pragmatika, og'zaki va yozma muloqot, qiyosiy tahlil.

**Abstract.** Politeness is not only a concept of etiquette, but also one of the complex linguistic and cultural phenomena of linguistics. This article analyzes and compares the concept of politeness and the means of its formation in Uzbek and English. The study shows that although the concept of politeness is universal, that is, it belongs to almost all nations, their expression and verbal formation are characteristic of the language and culture of each nation. The article examines politeness strategies, their communicative functions, and forms of linguistic expression based on a comparative approach.

**Keywords:** concept of politeness, politeness strategies, pragmatics, oral and written communication, comparative analysis.

**Аннотация.** Вежливость — это не только понятие этикета, но и одно из сложных лингвистических и культурных явлений. В данной статье анализируется и сравнивается понятие вежливости и средства её формирования в узбекском и английском языках. Исследование показывает, что, хотя понятие вежливости является универсальным, то есть принадлежит практически всем народам, его выражение и словесное формирование характерны для языка и культуры каждого народа. В статье рассматриваются стратегии вежливости, их коммуникативные функции и формы языкового выражения на основе сравнительного подхода.

**Ключевые слова:** понятие вежливости, стратегии вежливости, прагматика, устная и письменная коммуникация, сравнительный анализ.

**Kirish:** Til insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasidir. Xushmuomalik esa nutq jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omildir. U so'zlovchilarga iltimos, rad etish, uzr so'rash va fikrga qo'shilmaslik singari niyatlarini ijtimoiy jihatdan maqbul va muloyim tarzda ifodalash imkonini beradi. Ingliz va o'zbek tillari madaniy va lingvistik tubdan farq qiluvchi til bo'lganligi sababli xushmuomalikni taqqoslash uchun qiziqarli va muhim asos yaratadi. Ingliz tilidagi xushmuomalalik ko'pincha bilvositalik va yumshatish orqali ifodalansa, o'zbek tilida muloyimlik ijtimoiy ierarxiya, kattalarga hurmat va jamoaviy qadriyatlarda namoyon bo'ladi. Tilshunoslikning pragmatika va nutq tahlili sohalarida xushmuomalikni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Goffman tomonidan kiritilgan *face*

(ijtimoiy obro‘) nazariyasi ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda. Jumladan, Brown va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi ushbu tadqiqotlarda asosiy manba sanaladi, ayniqsa ularning ijobiy va salbiy “yuz” (face) o‘rtasidagi klassifikatsiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Ularning xushmuomalalik haqidagi qarashi quyidagicha: u muloqotdagi xulq-atvor turi va jamiyatdagi universal hodisa bo‘lib, millatlar madaniyati va kundalik hayotida turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalik insonning ijtimoiy tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Ingliz tilida xushmuomalalik.** Brown va Levinson xushmuomalalikni ikki guruhga ajratishadi: ijobiy va salbiy. Ijobiy yuz – bu shaxsning o‘z shaxsiyati, istaklari orqali boshqalar tomonidan qadrlanishi va ma’qullanishiga bo‘lgan istagidir. Salbiy yuz esa – bu insonning boshqalar tomonidan cheklanmaslik, o‘z xohishiga ko‘ra erkin harakat qilish istagini anglatadi. Tilshunoslar fikriga ko‘ra, xushmuomalalikning quyidagi strategiyalari mavjud:

- A. To‘g‘ridan-to‘g‘ri (Bald on-record)
- B. Ijobiy muloyimlik (Positive politeness)
- C. Salbiy muloyimlik (Negative politeness)
- D. Bilvosita muloyimlik (Off-record politeness)

Ingliz tilida xushmuomalalikning (politeness) eng ko‘zga ko‘ringan xususiyatlaridan biri bu “please” (iltimos), “thank you” (rahmat), “excuse me” (kechirasiz) singari muloyim so‘zlardan foydalanishdir. Bu so‘zlar kichik, ammo muloqot jarayonida muloyimlikni saqlashga katta yordam beradi. Xushmuomalalikning yana bir muhim ko‘rinishlaridan biri buyruq ohangini so‘rovlar bilan almashtirishdir. Ingliz tilida so‘zlovchilar, ayniqsa, rasmiy yoki notanish vaziyatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqlardan qochishadi. Misol uchun, “Open the window” (Derazani oching) deyish o‘rniga, “Could you open the window, please?” (Iltimos, derazani ochib bera olasizmi?) bo‘ladi. Ushbu bilvosita uslub buyruqni yumshatadi va uni kamroq talabchan qiladi. Bu ta’sirga erishish uchun odatda, *could*, *would* va *may* kabi modal fe’llarni qo‘llash talab etiladi. Ingliz tilida xushmuomalalik bilvosita tildan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Muloqot jarayonida so‘zlovchilar norozilik yoki tanqidni ochiq ifoda etish o‘rniga, ko‘pincha yumshoqroq ifodalarni tanlashadi. Masalan, “This is wrong” (Bu noto‘g‘ri) deyish o‘rniga, “I think there might be a mistake” (Menimcha, bu xato bo‘lishi mumkin) deb aytish tanqid ta’sirini pasaytirishi mumkin. Bu yondashuv nizolarni oldini olishga yordam beradi va boshqalarga nisbatan ta’siri kamroq bo‘ladi.

**O‘zbek tilida xushmuomalalik.** O‘zbek madaniyatida xushmuomalalik muloqot jarayonida muhim o‘rin tutadi va u qadim zamonlardan buyon shakllangan an’ana hisoblanadi. Yoshlar va keksalarga hurmat ko‘rsatish o‘zaro mustahkam ijtimoiy aloqalarni barpo etishning muhim omillaridan biri sanaladi. Misol uchun, yoshi va mansabidan, tanish yoki notanishligidan qat’i nazar, o‘zidan kattalarga “Assalomu aleykum” deb salom berish o‘zbek madaniyatida xushmuomalalikning eng dastlabki va muhim ko‘rinishiga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari o‘zbek tilida hurmat shakllari muhim ahamiyatga ega. Kattalarga yoki rasmiy vaziyatlarda murojaat qilganda “siz” shakli ishlatiladi, bu esa hurmatni ifodalaydi. Yaqin do‘stlar yoki tengdoshlar bilan esa “sen” shakli qo‘llaniladi. To‘g‘ri murojaat shaklini tanlash xushmuomalalikni oshirishda katta yordam beradi. Shuningdek, ingliz tilidan farqli ravishda, o‘zbek tilida xushmuomalalikni ko‘rsatishda ohang va muomala uslubi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, ovozning baland yoki pastligi, muomalaning ijobiy yoki salbiyligi

xushmuomalalik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, "Bu yerga keling!" (Come here!) ifodasini ovoz balandligiga asoslanib, ijobiy hamda salbiy ko'rinishlarda ifodalash mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, o'zbek madaniyatida xushmuomalalik nafaqat so'zlar, balki ovoz ohangi va hatto tana xatti-harakatlari orqali ham namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida ham o'zbek tilida ham xushmuomalalikning maqsadi bir xil - hurmat va ijtimoiy obro'ni saqlash. Biroq o'zbek tilida bu ko'proq madaniy va jamoaviy an'analarga, ijtimoiy ierarxiyaga asoslangan bo'lsa, ingliz tilida esa xushmuomalalikni ifodalashda grammatik va leksik shakllar muhim ekanligi aniqlandi. Har ikkala tilda ham xushmuomalalik va uning strategiyalarini bilish tilni o'rganishda, muloqotda va madaniyatlararo aloqalarda tushunmovchiliklarning oldini olishda zarur hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Brown, P., & Levinson, S.C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
2. Ashurova D.U., Galieva M.R. *Cultural Linguistics*. Tashkent, Uzkitobsavdonashriyot, 2019.
3. Goffman, E. *On Face-work: An Analysis of Ritual Elements of Social Interaction*. *Psychiatry: Journal for the Study of Interpersonal Processes* 18(3), 213-231. Reprinted in Goffman, 2005.- Pp. 5-46.
4. Mahmudov, N., & Asqarova, M. (2005). *The Speech Culture of the Uzbek Language*. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan
5. Taylor & Francis. *Politeness*. *Routledge Encyclopedia of Language Teaching and Learning*, 2009.
6. Olimjanova, S. T. qizi. (2026). *Speech Etiquette and Linguistic Manipulation: A Pragmatic Study of Politeness Strategies in Discourse*. *The Lingua Spectrum*, 2(1), 239-243.